O‘QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA

Gulbaev Ne‘matulla Abdukarimovich
Axborot texnologiyalari va aniq fanlar kafedrasi, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287409

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘quv jarayonida talabalarning darsga kechikib kelishi to‘g‘risida bo‘lib, talabalarning inson sifatida shakllanishida darsga kechikishni nazorat qilishning ayrim jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, dars mashg‘ulotlari turi strukturasi va masalaning echimiga tavsiyalar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

talaba, dars mashg‘uloti, nazorat, ta‘lim , o‘quv jarayoni.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет об опозданиях учащихся на занятия в ходе учебного процесса, а также описаны некоторые аспекты контроля опозданий на занятия в формировании учащихся как личности. Также дана структура типа уроков и рекомендации по решению проблемы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

студент, урок, контрол, обучение, учеба.

ABSTRACT

This article deals with students being late to the educational process, and also describes some aspects of student control over lateness to classes. The structure of machine classes and recommendations for solving the problem are given.

KEY WORDS

student, lesson, control, teaching, study.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida ta‘lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘qish dasturlarini ta‘lim tashkilotlari joriy etishi belgilangan.

O‘quv rejasida, qoida tariqasida, ta‘lim jarayonining jadvali, muddati va davriyligi, o‘quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta‘tillar, attestatsiya,

ajratilgan haftalar soni, o‘rganiladigan fanlar va ularga ajratilgan soatlar hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.

Qonundan ko‘rinib turibdiki, ichki tartib-qoidalarni va dars vaqtlarini oliy ta‘lim muassasalarining o‘zi belgilaydi. Demak dars mashg‘ulotiga kechikkan talaba darsga kiritilish sharti va davomat masalalari har bir oliy ta‘lim muassasalarida ichki qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida darsning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchi o‘zining katta tajriba va zamonaviy metodlarini ishga solib dars o‘ tishi zamon talabi bo‘lib turibdi. Ta‘lim berishning zamonaviy metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llash, talabalar hamkorligida yahchi tashkil etilsagina dars sifati va samarasi oshadi. Talabaning bu jarayonda ishtiroki avvalambor darsga kechikmasdan o‘z vaqtida kelishi bilan boshlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muloqot uslublarining rivojlanish istiqbollariga o‘zining hissasini qo‘shgan L.M. Mitina fikriga binoan pedagog kadrlarda o‘qituvchilik qobilyati, nazokati va mahorati bo‘lsa, darslar jarayonida yuzaga keladigan holatlarga nisbatan kreativ yondashish bo‘lsa talabalar jamoasiga kirishish osonlashadi. Pedagogik muloqotga A.A. Leontievning ta'rifi quydagicha: "...o‘quvchining motivatsiyasi va ta‘lim faoliyatining ijodiy xarakterini rivojlantirish, o‘quvchining shaxsini to‘g‘ri shakllantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadigan o‘qituvchi o‘quv jarayonida talabalar bilan aloqador. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha o‘zbek olimlarimizdan U.Sh. Begimqulov A. Xodjaboevlarni misol keltirishimiz mumkin. G. Ochilova va A. Xoliqovlar “Pedagogik mahorat asoslari” kitoblarida mavzumiz boyicha qimmatli ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘qituvchining ta‘lim jarayonida erishgan muvaffaqiyati darsning shakligagina emas, o‘qituvchi tomonidan foydalanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, u ta‘lim nazariyasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. O‘qituvchi o‘z tajriba metodlarini talabalarni tarbiyalashida ham qo‘llashi lozim. Talabalarning dars mashg’ulotlariga kechikmay o‘z vaqtida kelishini ta’minlash uchun, albatta o‘qituvchi o‘zining bor tajribasini ishga tushirishi lozim bo‘ladi. Ta‘lim-tarbiya metodlari ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi jarayondir. Bu metodlar - o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini va o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIASI

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida darsning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Ta‘lim berishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Bu metodlar o‘qituvchi tomonidan har bir darsning vazifasidan kelib chiqib tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishiga olib keladi.

Ayni damda talabalarning dars mashg‘ulotlariga kechikish holati shunchalik muhimki, masala Davlatimizning ham dolsarb masalasi darajasiga ko‘tarilgan(Milliy gvardiya xodimlari jabb qilingan). Bu tarbiyaning bir elementi bo‘lib, uning inson sifatida shakllanishida alohida o‘ringa ega.

Talabalarning darsga kechikmay kelishi uchun o‘qituvchi har-xil metodlarni o‘ylab topishga undamoqda. Bu tarbiya metodlari ta‘lim jarayonida ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta‘lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, bu metod o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘lidir.

Bu metodlar yaxshi natija beradigan bo‘lishi lozim. Ta‘lim beruvchining tushuntirish va ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo‘ljallangan natijani berishi kerak.

Ta‘lim metodlari va ta’1im vositalari birgalikda qo‘1laniladi. Ta‘lim vositalari — bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish maqsadida o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyektdir. Ta’1im vositalari pedagogikada katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta‘lim ning barcha vositalari ta‘lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Ta‘lim tashkilotlari Nizomida talabalarga sabablarsiz dars qoldirmaslik, kechikib kelmaslik majburiyati yuklangan. Shuningdek, bir o‘quv semestri davomida sababsiz 74 soatdan ortiq dars qoldirish o‘quv yurtidan chetlatilishga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi tahlillarga nazar solsak quyidagi ma’lumotlar tarqatilgan[5]:

- ba’zi oliy ta‘lim dargohlari ertalab darsga kechikib kelgan talabalarni fakultetga qo‘yishmayapti. Ustiga-ustak ularni suratga olib, eshik oldiga — «sazoyi taxtasi»ga ilib qo‘yishgan;
- soat 9-00 dan keyin ba’zi institutlar darvozasi yopiladi. O‘qituvchi va talabalar kiritilmaydi va boshqa holatlar kuzatilmoqda.

Darsga 5-10 daqiqa kechikkan talabani yarim soat izza qilish, jazolash — bu uning ta‘lim olish uchun sarflaydigan vaqtini talon-taroj qilishdir. Bu talabada o‘qiydigan joyiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Biznig fikrimizcha hech bo‘lmasa, shartlar asosida ertalab kirishga ruxsat berib, ba’zi ustozlarga o‘xshab: “Bolajonim keldingmi, darsga kir, to‘g‘risini aytsam sensiz darsni boshlashim qiyin bo‘lib turgandi. Kelganing yaxshi bo‘libdi”,- deb darsdan so‘ng talaba bilan konstruktiv muloqot olib borish kerak.


Ta‘lim tashkiloti talabasi voyaga etgan ongli fuqaro sanaladi. Uning dunyoqarashi va fikrlashi maktab yoki kollej o‘quvchisidan farq qiladi.

Ongli talaba avalo o‘z kelajagi uchun muhim ta‘lim dan mutlaqo yuz o‘girmaydi. Talaba darsga istar-istamas kelyaptimi, kelishni istamayatimi, demak, muammo faqat uning o‘zida emas.

Agar talabaning kechikish odati bo‘lsa, boshqa talabalar sizga e’tiborsiz odam sifatida qarashadi. Ular sizni hamma narsaga kechikuvchi inson deb o‘ylashlari mumkin. Agar bu tez-tez sodir bo‘lsa, bu sizning obro‘ingizga putur etkazishi va boshqalar bilan munosabatlaringizga ta’sir qilishi mumkin[1].

Talabalarning darsga kechikib kelishi, ta‘lim dargohlarining ichki tartib qoidalarini va o‘zaro kelishilgan shartnomani buzish hisoblanadi. Talabalarga dars mashg‘ulotlariga kechikmay kelishini doimo eslatib turish kerak.

Darsga kechikib kelgan talaba o‘zini provokatsion tutadi. O‘qituvchining bu jarayondagi xarakatlari quyidagilar bo‘lishi mumkin (1-rasm):



1- rasm. Darsga kechikuvchilarga nisbatan ko‘riladigan choralar.

Darsga kechikish talaba ta‘lim tashkiloti ichki Nizomida belgilangan tartib qoidalarini buzish hisoblanadi. Lekin, bu talabaning baholariga ta’sir qilmasligi kerak, chunki ular faqat ma’lum bir fan bo‘yicha bilim uchun qo‘yiladi. Talabalar kechikib kirishi mumkin bo‘lgan o‘quv faoliyatining asosiy turlari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Oliy ta‘lim tizimi o‘quv faoliatining asosiy turlari

Talabalarning dars mashg‘ulotlariga 15 daqiqadan ortiq kelmasligi kechikish hisoblanadi. 5 daqiqagacha kechikib kelgan talabalar ogohlantirilishi va tizimli kechikuvchilar safida ularga chora ko‘rilishi lozim.

O‘qituvchi kechikkan talabani darsdan chiqazib yubormasdan, og‘zaki ogohlantirishi va tushuntirish xati olib darsga ruxsat berishi tavsiya qilinadi. “Chiqish” qo‘ng‘irog‘i chalingandan keyin talabalarni auditoriyada ushlab o‘tirish mumkin emas. Bu holat keyingi juftlik darslariga kechikishga sabab bo‘ladi.

O‘qishga doim kech keladigan talaba ertaga ishlab chiqarishga borgach, ishga o‘z vaqtida keladi deb, hech kim kafolat bera olmaydi.

Ichki Nizomda dars mashg‘ulotlariga kechikish belgilanmagan bo‘lsada, bu qoidabuzarlik odatda shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaslik va uni qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi.

Darsga kechikishlarni ikki holatda baholash mumkin: birinchisi 15 daqiqadan birinchi juftlik mashg‘ulotlariga kechikish va eng muximi ikkinchisi 2 soatdan ko‘p vaqt kechikish ya’ni darsga kelmaslik tushuniladi.

Necha daqiqa kechikish mumkin degan munozarali savolga o‘tsak, ushbu muddatning davomiyligi butunlay talabaga va keyingi xatti-xarakatlariga bog‘liq. Oddiy imtiyozli davr besh-yetti daqiqani tashkil qilishini talabaga eslatish lozim. Agar talaba har kuni besh-yetti daqiqa kechiksa, sababini tushunish uchun u bilan gaplashishingiz kerak. Talaba fan bo‘yicha nazorat mashg‘ulotiga kechikib kelsa, o‘qituvchi unga nazorat bo‘yicha topshiriqni berishi va nazorat vaqtiga rioya qilishini eslatishi lozim bo‘ladi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning darsga kechikishiga quyidagi uzrli omillarni keltirishimiz mumkin[2]:

- ob-havo bilan bog‘liq holatlar(ko‘p qor, yomg‘ir yog‘ishi);

- yo‘l-transport holatining yomonlashishi(tirbandliklar);
- yaqin qarindoshlarning kasal bo‘lishi;
- tibiiy ko‘rikdan o‘tish;
- ba’zi favqulotli vaziyatlar(yo‘l-transporti xodisasi va boshqalar);
- sudga, harbiy komissiyaga chaqirish;
- sog‘ligining yomonlashishi, kasallanishi, kasalxonada davolanishi;

• sport mashg‘ulotlari yoki musobaqalari;

• olimpiada va boshqa musobaqalarda qatnashish;

- kasallik tufayli shifokor qabulida bo‘lish kabilar.

Talabaning dars mashg‘ulotida yo‘qligi “darsga kechikish” yoki “darsga kelmaslik” deb tushuniladi. Bu holat o‘quv muassasasi ichki Nizomi asosida baholanadi, nazoratga olinadi va zaruriy chora ko‘riladi. Natija, dars mashg‘uloti sifati(ma’ruza yoki munozara jarayonining buzilishi, boshqa talabalarning chalg‘ishi, o‘qishga xalaqit berishi) va umuman auditoriya ruhiyatini buzishi mumkin. Holat nazorat qilinmasa, kechikish surunkali holga kelishi va butun guruhga tarqalishi mumkin natijada, o‘qituvchi rejasi buziladi, gurux va ta‘lim muassasasi ko‘rsatkichlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Dars mashg‘ulotiga kechikib kelgan talaba, o‘z xatti-xarakati uchun o‘qituvchidan uzr so‘rashni ham bilishi lozim. Kechikib kelish sababini aytib uzr so‘rashi va bu holat takrorlanmasligiga va’da berishi talaba ma’suliyatiga kiradi. Bu holatlarda o‘qituvchi baqirishiga, talabani haqoratlashi yoki uni kamsitishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchi kechikkan talabani uning ichki Nizomda belgilangan formasi yo‘qligi va boshqa sabablar bilan dars mashg‘ulotidan chetlatish mumkin emas, lekin bu holat takrorlansa nizomda ko‘rsatilgan talablar asosida albatta chora ko‘rishi lozim. Talabani auditoriyadan haydab chiqarishga o‘qituvchining huquqi yo‘q, chunki bu xavfsizlik qoidalarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darsga kechikib keluvchilarga qarshi ishlatiladigan metodlar va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, darsga kechikuvchi talabalaga tarbiya usulini bayon etishda bir xil metodlar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va uchinchi marta kechikuvchilarga qarshi usullarni umumlashtrishda ya’nada boshqa xil metodlar qo‘llanadi. Darsning turli bosqichlarida kechikuvchilarga qarshi usulni puxta o‘ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. Bularning barchasi o‘qituvchidan yetarlicha tajriba,vaqt va qat’iatlikni talab qiladi.

Tarbiya metodlarining ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning sonini aniq belgilab bo‘lmaydi.

Metodlar tarbiyaning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Ta‘lim dargohlarida darsga kechikuvchilarga qarshi tarbiya metodlarining yagona tasnifi yo‘q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy tarbiya metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

Bugungi kun malakali pedagoglarining muvaffaqiyatli ishlashlari, o‘quvchilarga ta‘lim berishlari uchun ta‘lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishni bilishlari juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun innovatsiya yangilik atamasi ko‘pchilikning e‘tiborini tortadi. Innovatsiyaning ta‘lim – tarbiya ishidan to‘liq va aniq qo‘llash uchun uning mazmun, mohiyatini tushunib yetish lozim. Innovatsiya orqali o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini optimallashtiradi[3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi , tanqidiy qarashi rivojlanadi. Talaba uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir talaba o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Natijada o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta‘lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

1. Inson shaxsiyatini gumanizm uslubiyati bilan tarbiyalash konsepsiyani rivojlantirish;
2. Talabalar necha bor kechiksa ham ularga psixologik yo‘l bilangina ta’sir qilish;
3. Ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni «qonuniylik, demokratik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va hurmat» prinsiplariga asoslanishi[4].

Xulosa shuki, bunday sharoitda o‘qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo‘yicha chuqur mushohada yuritishga, muammolarni o‘z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak. Darsg kechikib keluvchilarga qarsh tanlangan usullarda darslarni tashkil etishda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish o‘zi-o‘ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak.

Ta‘lim olish jarayonida darslarga kechikib keluvchilarga qarshi taklf qilinmoqchi bo‘lgan usul va tarbiya metodlari, vositalari va ularni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash muhim ahamiyatga ega muommo hisoblanadi. Shu bilan birga

bo‘lajak kadrlarni bunday jarayonlar bilan chuqurroq tanishtirish va bu borada tajribalarni ommalashtirib mustahkamlab borish maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish mumkinki darsga kechikishni oqlab bo‘lmaydi. Ta‘lim o‘z vaqtida olinishi, qoidalar hurmat qilinishi shart. Talabani o‘qituvchi kelmasdan darsxonada hozir bo‘lishga undaydigan ta‘lim tizimi yaratishga hissa qo‘shaylik. Talaba har kunidan mamnun bo‘lsin. Modomiki, u haliyam o‘quv dargohi faoliyatidan qoniqmas ekan, kechikishlar, dars qoldirishlar takrorlanaveradi.

ADABIYOTLAR

1. N.A.Gulbaev. Pedagogik oliy ta‘lim muassasalaridagi “ta‘lim da axborot texnologiyalari” o‘quv fanini tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish. Diversity Research: Journal. Volume 01 *ssue 04,juli 2023 g. p. 29-34.*
2. N.A.Gulbayev, M.Karshieva. Talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o‘rni. The role of information technology in the development of communicative competence of students. Volume 2, Issue 4, April 2024.
3. Ch. S. Shamsiyeva. “Dars samaradorligini oshirishda foydalanish uchun metodlar”. WORLDLY KNOWLEDGE International journal of scientific researshers.
4. Н.А.Гулбаев, А.В. Марцинковская. “Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni va vazifalari”. Web of Texchology: Multidimensional Researgh Journal. Volume 2, Issue 11, November2024 ISSN (E):2938-3757 194| P a g e.
5. Internet saytlari.